

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Maksudova Munisa Rahimjon qizi

*Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti Arab filologiyasi
yo‘nalishi 4-bosqich arab va ingliz guruhi talabasi*

Abstract: This article highlights the importance, significance, and advantages of using modern technologies in teaching foreign languages, as well as their role in increasing learners’ speed and activeness. In today’s digital age, the use of multimedia tools, online platforms, interactive textbooks, mobile applications, and artificial intelligence–based systems and programs in the language-learning process is emphasized as a means of enhancing educational effectiveness. The article also discusses how advanced modern technologies help students develop independent thinking, free learning, rapid research skills, and active participation.

Keywords: Foreign languages, modern technologies, multimedia, online platforms, interactive lessons, mobile applications, modern methods, distance learning, pedagogical technology, artificial intelligence, educational effectiveness.

Annotasiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning muhimligi, ahamiyati, afzalliklari va o‘quvchi tezkorligini va faolligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Bugungi kundagi raqamli davrda til o‘rganish jarayonida multimedia vositalari, onlayn platformalar, interaktiv darsliklar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi tizimlarni va dasturlarning qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi. Shuningdek, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin o‘rganish, tezkor izlanish va faol ishtikor etish ko‘nikmalarini shakllantirishi maqola davomida yuritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar, multimedia, onlayn platformalar, interaktiv dars, mobil ilovalar, zamonaviy metodlar, masofaviy taʼlim, pedagogik texnologiya, sunʼiy intellekt, taʼlim samaradorligi.

Ushbu maqolada Xorijiy tillarni oʻqitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va oʻrni haqida yoritiladi. Bugungi kunda rivojlangan davrda xorijiy tilni bilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanib kelmoqda. Chunki qancha koʻp mukammal til bilgan insonga, shuncha katta imkoniyatlar eshigi ochiladi. Til bilish nafaqat muloqot doirasini kengaytirib qolmaydi, balki zamonaviy kasblarda yuqori muvaffaqiyat qozonish, xorijiy mamlakatlarda bilim olishga va xalqaro maydanda faol ishtirok etishga imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Darsning samarali, qiziqarli va dars oldiga qoʻyilgan gʻoyaning, maqsadning yechimiga ega boʻlishi oʻquvchining darsga qanday tayyorgarlik bilan kelganiga juda bogʻliqdir.

Oʻqituvchi dars va darslik bilan chegaralanib, cheklanibgina qolmay, oʻz sohasining bilimdoni sifatida innovatsion, zamonaviy dasturlar faoliyat doirasida yangi axborotlarni izlab topsa, uni tizim holiga keltirib, oʻquvchini faol va izchil metodlar asosida muammoli mashgʻulotlar olamiga yoʻnaltira bilsa, oʻqituvchidan toʻgʻri ilmiy-uslubiy yoʻnalish olib kelgan oʻquvchida erkin va mustaqil ravishda bilimlarni, koʻnikmalarni egallash koʻnikmasi rivojlanib boradi. Ana shunda tezkor va zamonaviy oʻquvchining darsga tayyorgarligi bugungi kun talabi darajasida boʻlmoqda, desak adashmagan boʻlamiz.

Darsning har bir daqiqasini gʻanimat bilib, oʻquvchini darsga qiziqishini uygʻota oladigan, uning mustaqil fikrlashini rivojlantirish orqali darsning maqsadiga erishishga urungan oʻqituvchi, vaqt daqiqalarini ham toʻgʻri taqsimlash, dars mashqlarining har bir qismida koʻrgazmali vositalardan, tarqatma materiallardan unumli va yetarlicha foydalanishni yoʻlga qoʻyish orqali oʻquvchida oʻylash va mantiqiy tafakkurni oʻstirish va rivojlantirish sari yangi eshiklarni ochib boradi. Oʻquvchining darsga tayyorgarligi jiddiy, puxta va oʻz navbatida, masʼuliyatli jarayon hisoblanadi.

Ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan olib borgan davra suhbatlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bunday o‘quvchilarning aksariyati Davlat ta’lim standarti asosida tayyorlangan reja, dastur va darsliklarni ko‘zdan kechirib va xotirasida qayta tiklash bilan cheklanish bilangina, dars berib kelayotganliklari ma’lum bo‘lgan.

Bugungi kunda til o‘rgatish jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Chunki an’anaviy, sodda dars usullari o‘quvchining faolligini to‘liq oshira olmaydi, zamonaviy o‘quvchi esaqiziqarli, zamonaviy me’todlar, usullar, yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlarga muhtojlik sezadi. Shuning uchun o‘qituvchi darsni faol, qiziqarli, samarali, o‘quvchini rag‘batlantirish va uning mustaqil va erkin o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan umunli foydalanishlari kerak.

Zamonaviy texnologiyalarga quyidagilar kiradi: multimedia vositalari, mobil ilovalar, interaktiv doskalar, elektron darsliklar, onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar. Ushbu zamonaviy ilg‘or texnologiyalar dars jarayonini yanada qiziqarli va jonli qiladi, shuningdek, audio va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarning eshitish, tinglab tushunish, to‘g‘ri gapirish va tilni mukammal o‘rganishiga yordam beradi. Masalan: Duolingo, Busuu, Memeise kabi mobil ilovalar o‘quvchiga hohlagan vaqtda erkin va mustaqil mashq qilishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Onlayn platformalar - Zoom, Google Classroom, Moodle kabi tizimlar masofaviy ta’limni samarali va puxta qilishda katta o‘rin egallaydi. O‘qituvchi darsni interfaol, noodatiy, zamonaviy usullar bilan olib boradi, o‘quvchi esa vazifalarni erkin va mustaqil bajaradi, natijada o‘quv jarayoni davomiy, qiziqarli va tizimli bo‘lib boradi. Bundan tashqari, kichkina guruhlarda ishlash, qiziqarli va muammoli topshiriqlar berish, bahs-munozara tashkil qilish o‘quvchilarning zamonaviy til ko‘nikmalarini puxta rivojlantirishligiga katta xizmat qiladi.

Hozirda men o‘zim ham arab va ingliz tillarini o‘rganmoqdaman. Bugungi

kunda Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni juda muhim bo‘lib, tillarni zamonaviy texnologiyalar orqali erkin o‘rganish ancha qulay bo‘lmoqda. Chunki qanchako‘p til bilgan insonga, shuncha katta imkoniyatlar eshigi ochiladi. Til bilish faqatgina muloqot doirasini kengaytiribgina qolmay, balki kasblarda katta yutuqlar va muvaffaqiyatlarga erishish, o‘quvchilarni faol, mustaqil bo‘lishga undaydi. Bugungi kunda zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni bilish har bir o‘quvchining muhim vazifasi va bilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalari bo‘lib qoldi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida til o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli, oson, davomiy va samarali bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Matchonov S. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Xolmurodova N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
3. Aripova M. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
5. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
6. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
7. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
8. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёиййа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.

9. Toshmatova, S. (2025). Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*.—2025, 3(11).
10. Shoxista, M. (2023). Mahmudova Sh. A. Ijodkor va ijodiy biografiya. *Alfraganus*, (4 (4)), 47-51.
11. Хамракулова, Ш. А. (2026). КОНЦЕПТ «ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ» КАК МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ КАТЕГОРИЯ В СОВРЕМЕННОЙ НАУЧНОЙ ПАРАДИГМЕ. «*Qazaqtaný*», (30), 133-141.
12. Toshtemirovna, G. M. (2025). USING REAL-WORLD SCENARIOS TO TEACH INTERPERSONAL COMMUNICATION SKILLS IN ENGINEERING ENGLISH COURSES. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(6), 14-16.
13. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o'rganilishi*. *Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.
14. Raxmonov, A. K. (2024). *Creating favorable ecosystems for youth entrepreneurship in Uzbekistan*. In *Collection of Articles of the International Scientific Conference on the Topic of "The Future of Youth and Entrepreneurship in Education" Within the 10th UNESCO–APEID (Educational Innovations Programme for Asia-Pacific Development) Meeting on Entrepreneurship in Education* (pp. 67–71). Alfraganus University.
15. Raxmonov, A. K. (2024). *Mutarriziy va uning "Nahv risolasi"*. In *Sharq tillari tadqiqi va ta'limi muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (pp. 211–214). Oriental University.
16. Kuchkarovich, K. U. (2025). The Practical Interpretation of Artistic Harmony in the Short Stories of Khayriddin Sulton. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 42, 243-245.
17. KUCHKAROVICH, K. (2024). THE INFLUENCE OF EASTERN POETRY ON WESTERN POETRY AND THE CREATION OF ALIGHIER DANTE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES Учредители: The USA Journals*, 5(11), 47-54.